

PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Miraxmedov Fatxulla,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada “uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”ni joriy etishda tarbiyani baholash ko'rsatkichlari sifatida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik va milliy g'urur kompetentsiyasini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari ishlatilgan. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni talabalarning milliy g'urur kompetentsiyasini shakllantirishga tayyorligini tashxislash imkoniyati oshdi. Ushbu takliflar bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim faoliyatiga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish imkonini berdi.

Kalit so'zlar: milliy g'urur ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika.

Аннотация. Данная статья была использована в качестве показателя оценки воспитанности при введении “концепции непрерывного духовного образования” из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компенсатию лояльности к Родине.

Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развить в них активную гражданскую позицию.

Ключовые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика.

Abstract. This article used the criteria and indicators for the development of the competence of civil and national pride in future teachers as indicators of the assessment of upbringing in the introduction of the “concept of continuous spiritual education”. As a result, the possibility of diagnosing future educators in student's readiness to form a competence of national pride has increased. These proposals made it possible to prepare future educators for educational activities, to develop an active civic position in them.

Keywords: consciousness of national pride, patriotic worldview, spiritual-moral, civil-patriotic, military-patriotic, sports and patriotism, pedagogy.

Kirish. Jahonda xalqaro ta'lim standarti tasnifi (XTST) talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan ma'naviy kompetensiyalarga (fazilatlar) ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

XIX asrning oxirlarida ingliz iqtisodiyotining rivojlanishi, davlatchilik tuzilishidagi siyosiy xususiyatlar, yuksak madaniyatning rivojlanishi – bularning barchasi tarixchi, siyosatchi, iqtisodchi va faylasuf olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan. I.S.Shilnikov ta'kidlashicha, “Aynan, Britaniya imperiyasining qudrati, uning sarhadlarining kengayishi, milliy xarakterning shakllanishi, o'z milliy qadriyatlariga muhabbat, ona zaminni ardoqlash hissi, ona-yurtini e'zozlash, oilasi va yaqinlariga g'amxo'r bo'lish sifatlari – ingliz vatanparvarligining nishonasi sifatida namoyon bo'ladi. “Mening uyim –mening qal'am!” iborasi ham ilk bor inglizlar tomonidan iste'molga kiritilganligi ayon” [55]. Sir emaski, Buyuk Britaniyaning qudrati, uning sarhadlarining kengayishi, o'zga millatlar

(ayniqsa bosib olingan xalqlar) ustidan dominantlik hissi Britan vatanparvarligida noxush holatlarni ham keltirib chiqargan, ayniqsa, qirolicha [Yelizaveta II](#) davridayoq boshlangan va bir necha asrlar davomida keyingi monarxlar tomonidan davom etgan siyosat asnosida (1876-1947-yillar) qator mamlakatlar Buyuk Britaniyaga qaram mamlakatlar (Hindiston, Shimoliy Pokiston va boshqalar) hisoblandi. Bular sirasiga Angliyadagi Qo'shma qirollik: Uels, Shotlandiya, Irlandiya (1920-yillargacha); qirollik erlari: Menn, [Djersi](#), [Gernsi](#) orollari; dominionlar (Usmoniylar imperiyasiga tegishli bo'lgan erlar) va h.k. Inglizlarning etnik xususiyatlari haqidagi qarashlar bosib olingan xalqlar tomonidan yuzaki baholanib borildi va kelgusida ingliz milliy xarakterining shakllanishida o'chmas iz qoldirdi.

Adabiyotlar tahlili. Ingliz yozuvchisi J.Golsuorsi "Haqiqiy ingliz yozuvchisi, jentelmen, o'z ona-yurtini sevuvchi vatanparvar" [134] asarlarida o'z zamonasida yashab, ijod etgan yozuvchi, shoirlar, saroy a'yonlariyu, boy-zodagonlaridan tortib, oddiy kosib va mehnatkash inson siymolari gavdalanadi. Uning asarlarida badiiy siymolar orqali ingliz xalqiga mansub bo'lgan "milliy g'urur" tushunchasi keng talqin qilingan. Yozuvchining "Dil izhorlari albomi" deb nomlangan tarixiy-publitsistik asarida J.Golsuorsi "ingliz vatanparvarligi" kategoriyasini baholab, o'zini qiynagan savollarga javob izlaydi. Yozuvchi haqiqiy vatanparvar bo'lish uchun o'z Ona erini sevish bilan birga, unga jonini fido qilish, shu zaminda yashovchi fuqaro uchun eng oliy ne'mat, deb uqtiradi. Angliyaning go'zal tabiatini yozuvchi mo'jaz narsalarda ko'radi. Uning uchun shotland botqoqliklari, qishloq hayoti, osmonda uchib ketayotgan qushlar, daladagi choy o'tlarining hidi, otlarning kishnashi o'z Vatanini chuqur bilishga undovchi kuch, deb biladi. O'z romanlarida J.Golsuorsi ingliz vatanparvarligini talqin qilib, unga baho berar ekan, shunday yozadi: "...ingliz xarakterining eng ko'zga ko'ringan tomoni – bu uning vatanparvarligidir. Inglizlar xarakterida egoizm (xudbinlik) o'zga millat vakillariga nisbatan kam darajada namoyon bo'lsada, ammo o'zining qudrati va boshqa xalqlardan ustunligini ko'rsatish hissi juda kuchlidir. Dunyoning yarmini bosib olgan inglizlar o'zining mamlakati uchun shu paytgacha "country" so'zidan boshqa atama o'ylab topishmadilar. Ushbu so'z zamirida: ham "mamlakat", ham "qishloq", "shahardan uzoq joy", degan ma'no mavjud" [135].

J.Golsuorsi "milliy g'urur" kategoriyasiga baho berishda konnotativ, empirik, tarixiy, madaniyatshunoslik, ilmiy dunyoqarash asnosida hissiylikka yo'g'rilgan jihatlarni ajratib ko'rsatishga harakat qilgan [76]. Ingliz ekanligimdan g'ururlanaman, deyish o'rniga inglizlar: "The British Empire", – g'urur bilan Britaniyaning o'zga mamlakatlardan ustunligini qayd etishadi" [135], – deb yozadi va h.k.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda pedagogika, ma'naviy tarbiya va milliy g'urur kompetensiyasiga oid ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish jarayonini o'rganish maqsadida taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida

talabalarda milliy g'urur kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tahlillar va natijalar. Hozirgi kunda amerikaliklar tomonidan ingliz tilida “siyosiy nazokat” tushunchasi mavjud. Ular foreigner (kelgindi) evfemizmi o'rniga, alien (notanish) yoki newcomer (bu erlik emas) so'zini ishlatishadi[76]. Albatta, vaqt o'tishi bilan “ingliz vatanparvarligi” atamasiga yangicha qarashlar paydo bo'ldiki, ular Yevropa Ittifoqi va amerika madaniyati “domiga tushish xavfi” dan saqlanish uchun “milliy g'urur tuyg'ularini rivojlantirishga urinishyapti”.

I.S.Shilnikov J.Golsuorsining asarlarida “Ingliz vatanparvarligining talqin qilinishi” nomli monografiyasida o'zga millatlar madaniyati, turmush tarzi haqida u yoki bu elat, xalq, millat to'g'risida muayyan fikr paydo bo'lishiga oldindan ma'lum bo'lgan axborotlarning ta'siri katta bo'ladi” [134], – deb yozadi. Darhaqiqat, u yoki bu elat, xalq, millat to'g'risida tarixiy turg'un bo'lib qolgan ijobiy ustanovkalar shu millat vakillariga nisbatan yaqinlashish, do'stlashish hissini uyg'otadi, aks va salbiy ustanovkalar esa xalqlarning bir-biriga bo'lgan yaqinlashish, hamkorlikda yashash, mehnat qilishga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Bugungi kunda dunyodagi eng oliy maqsad tinchlikni saqlash bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, xalqlar orasida milliy totuvlikni saqlash, do'stona munosabatlarni o'rnatish, fikr hamkorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda har bir ziyoli insonning o'zga millat va elatlar tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlarini o'rganish hayot normasiga aylanib bo'lgan. “Hatto, oliy ta'lim muassasalari talaba va professor-o'qituvchilarining til o'rganishlariga bo'lgan ishtiyoqi, nafaqat kommunikativlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga, balki, o'zga millat va xalqlar bilan partisipativ (o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik) asosida ish yuritishga qaratilgan[53], – deb yozadi D.A.Novikov.


Yaponiyada yoshlarni bog'cha davridagi rivojlanish pallasidayoq Milliy g'urur, Vatanga sadoqatli qilib o'stirish masalalariga katta e'tibor qaratishadi. Yaponiya davlatining bosh vaziri Sindzo Abe faoliyat yuritayotgan paytdan boshlab, maktablarda milliy g'urur his-tuyg'ularini o'quvchilarda shakllantirishga davlat siyosati darajasidagi masala sifatida qarala boshlandi. Ushbu siyosatchi topshirig'i bilan “sinf xonalariga milliy g'ururni qaytarish” harakati boshlandi. Shu maqsadda “Yaponiya tarixi” o'quv predmeti bo'yicha darsliklar qaytadan nashr qilindi (2000-2010-yillar).

1947-yili Yaponiya ikkinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragandan so'ng “Ta'lim to'g'risidagi fundamental Qonun” qabul qilindi. Unda milliy g'urur atamasidan qochish holatlarini kuzatish mumkin. 2002-yildan e'tiboran Yaponiya hukumati tomonidan yangi o'quv dasturlari, o'quv rejaları va darsliklar tayyorlanib, ularda “milliy g'urur” atamasi yangi ma'no-mazmun kasb etuvchi tushuncha sifatida talqin qilindi va olti yillik majburiy ta'limning asosiy maqsadi – “bolalarda milliy g'ururni shakllantirish”, – deb belgilandi.

2012 yili Yaponiya maktablari uchun nashr qilingan darsliklarda “Milliy g‘urur nima?” savoliga javob beruvchi rasmiy qarashlar o‘z ifodasini topdi. Bu qarashlarda Xitoy, Janubiy Koreya va Rossiya mamlakatlari bilan ko‘p yillardan beri davom etayotgan chegaraviy tuzilmalar to‘g‘risidagi bahslar ifodalandi.

“Journal of American Indian Education” jurnali tarbiyaviy faoliyat strategiyasi haqida so‘z yuritib, “yaxshi inson”ni shakllantirish birinchi navbatda axborot, ma‘rifat, ongning rivojlanishi, qarama-qarshiliklarni engib o‘tish, tanqid, ijodiy faollik, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohalarida mustaqil qaror qabul qila olish kabi ko‘nikmalarni integral shakllantirish orqali kechishi lozim”ligini ta’kidlaydi.

Xorijiy tajriba tahlili asosida zamonaviy vatanparvar shaxsga xos kompetensiyalar(fazilatlar)ni ajratib ko‘rsatish mumkin (2.1.1-rasmga qarang).



2.1.1-rasm. Zamonaviy vatanparvar shaxsga xos fazilatlar.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida tadqiqotda umummadaniy kompetensiyalar asosida talabalarda milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Zamonaviy jamiyat rivojining muhim ehtiyojlaridan biri insoniyat va har bir insonning taqdiri bilan bevosita aloqador madaniyat hodisasining mazmuni hamda funksiyalarini innovatsion tarzda tushunish bilan bog‘liqdir. Aynan ijtimoiylashuv jarayonida umuminsoniy qadriyatlar, xulq-atvor me‘yorlari va qoidalari, boy madaniy merosni o‘zlashtirish orqali ta‘lim oluvchilarning o‘zligini anglashiga erishiladi. O‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir ta‘lim oluvchi shaxsini shakllantirish, uni milliy madaniyat bilan tanishtirish ta‘lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik lug‘at va ensiklopediyalarda madaniyat va shaxs tarbiyasining aloqadorligi alohida qayd etib o‘tilgan. V.M.Polonskiy tomonidan yaratilgan “Ta‘lim va

pedagogika bo'yicha lug'at'da madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Madaniyat – jamiyat va kishilarning hayoti va faoliyatini tashkil etish turlari va shakllari, inson faoliyatining moddiy va ma'naviy natijalari, dunyoqarashda namoyon bo'ladigan salohiyati va qobiliyatlari, insonning intellektual, axloqiy, estetik rivojlanishi, uning boshqa kishilar va tabiat bilan muloqoti usullari va shakllarining rivojlanish darajasi" [114].

Pedagog olimi Oynisa Musurmonovanning ta'kidlashicha esa, "Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarakterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tizim bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini tashkil etadi. Bundan madaniyat shaxs va uning faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirga doir qonuniyatlari, shu jumladan shaxs va jamiyatning borliqqa bo'lgan madaniy munosabatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, shaxsning talabi, qiziqishi, xohishiga mos ravishda uning madaniy faoliyatini tashkil qilish yo'llari, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma'naviy rivojlanishi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish qonuniyatlari majmuidan iborat" [102].

Yuqoridagi ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, "Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, huquq, ta'lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi.

Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichidir. Shu bilan birga, insonning o'zi ham, pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Hatto aytish mumkinki, madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday tarzda shakllanadi" [103].

Akademik D.S.Lixachevning fikricha, "madaniyatli inson – bu ko'p narsani tushunadigan, binobarin boshqalarga intiladigan, ularning ma'naviy hayotini "kashf etuvchi" turli davr va xalqlarning san'at asarlarini o'zlashtirgan shaxs. Madaniyatli insonning muhim farqli jihati shundaki, deb ta'kidlaydi, D.S.Lixachev, u tajovuzkorlikdan, shubhali harakatlardan, shaxsiy norasoliklar majmuidan xoli bo'ladi. Ana shunday insonni ta'lim muassasasi shakllantirishi zarur[44].

Ana shu tariqa, "madaniyat" tushunchasi mazmuni to'g'ridan to'g'ri shaxslilik sifati bilan aloqador bo'lib, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida zamonaviy tarbiya va pedagogik jarayonda mazkur kategoriyaning roli yanada, oshganligini ko'rish mumkin. Oliy ta'lim muassasasining muhim vazifasi ta'lim-tarbiyaga doir me'yoriy hujjatlar, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar va tarbiya konsepsiyalarida aniq belgilab qo'yilganidek, o'sib kelayotgan avlodda umummadaniy kompetensiyani shakllantirishdan iboratdir.

"Umummadaniy kompetensiya"ga turli-tuman ta'riflar berilgan. Masalan, G.K.Selevkoning ta'kidlashicha, umummadaniy kompetensiya – individning ijtimoiy va madaniy muhitga yo'naltirishga imkon beruvchi bilim, malaka va ijtimoiy tajriba unsurlari yig'indisidir [56]. L.L.Suprunova umummadaniy kompetensiyani "ta'lim oluvchilarda intellektual, madaniy, axloqiy va jismoniy o'z-o'zini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish

va amalga oshirish qobiliyati” [58] sifatida talqin qiladi. Qo‘yilgan maqsadga erishishdagi qat’iylik, to‘plangan tajribani tanqidiy mushohada qilish, shuningdek, tolerantlik, ijtimoiy moslashuvga qobiliyatlik, mustaqil va jamoada ishlash ko‘nikmasi “umummadaniy kompetensiya”ning asosiy tushunchalarini tashkil etadi.

S.L.Troyanskaya “umummadaniy kompetensiya” tushunchasini chuqur tahlil etish asosida “umummadaniy kompetensiya madaniy muhitni o‘zlashtirish tajribasi, ta’lim olganlik darajasi, tarbiyalanganlik va rivojlanish, bilish, dunyoqarashga oid, hayotiy, kasbiy tavsifdagi muammolarni hal etishni baholash mezoni sifatida madaniy etalonlardan foydalanishga yo‘naltirilgan shaxsning integrativ qobiliyati” [133], degan xulosaga keladi.

S.L.Troyanskaya ta’lim oluvchida umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish bilan bog‘liqlikda uning quyidagi komponentlarini ajratib ko‘rsatadi: o‘quvchilarning madaniyatni tushunishi va o‘zlashtirishi, insonning muammoni tushunish va uni hal etish asosida bilimlarni egallash qobiliyatini amalga oshirishni kafolatlovchi kognitiv komponent; kishilar bilan ma’naviy-axloqiy o‘zaro birgalikdagi harakat jarayonida qadriyatlarni uzatish vositasi sifatida insonning madaniyat bilan muloqotga kirishishini belgilab beruvchi qadriyatga yo‘naltirilganlik komponenti; madaniy faoliyat, muloqot ko‘nikmalari rivojlanadigan kommunikativ-faoliyatga doir komponent [134].

Jak Delor ta’lim bo‘yicha xalqaro komissiyaning “Ta’lim: sirli marvarid” deb nomlangan ma’ruzasida pedagogik yo‘nalishning to‘rt asosiy jihatini ajratib ko‘rsatar ekan, kompetensiya “turli-tuman ko‘plab vaziyatlar bilan va guruhiy ishlash imkoniyatini beradi” [81], degan fikrni alohida ta’kidlab o‘tadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar asosida umummadaniy kompetensiya bilishga qiziqish, ma’naviy-axloqiy e’tiqod va tasavvurlar, voqelikni o‘zlashtirish va qayta yaratish bo‘yicha madaniy faoliyatga tayyorlikni shakllantirishni talab etuvchi umuminsoniy qadriyatlar bilan bevosita aloqadar ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘RQ-637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘RQ- 406-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // PF-60-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // PF-5847-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. // PQ- 3775-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori // PQ-4307-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va

- jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori. – T.: Qonun hujjatlari milliy bazasi, 2018. – 1706-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // PF-6017-son.
 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi // PF-6108-son Farmoni.
 10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // PQ-5040-son.
 11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni harbiy-milliy g'urur ruhida tarbiyalash to'g'risida"gi 140-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021 y., 09/21/320/0482-son.
 12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31- dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori.
 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-yanvaridagi "Yoshlarni milliy g'urur ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 369-son Qarori.
 14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 44 b.
 15. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 30 b.
 16. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: O'zbekiston, 2018. – 30 b.
 17. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b. – B.32.
 18. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 537 b.
 19. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 252 b.
 20. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.– 39 b.

1934